

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

4/2020

Bosh muharrir:

Umarov Alisher Yusubjanovich

Tolipov O'ltir Qarshiyevich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:

Abdullayeva Barno
Abdullayeva Muborak
Adilova Saodat
Boboyev Tuyg'un
Ergashov Maxamatrasul
Hakimova Muhabbat
Xalilov Ruslan
Isyanov Ravil
Mamadaliyev Abdumajid
Muslimov Narzulla
Olimov Bahshulla
Panjiyev Qurboniyoz
Palchik Gennadiy
Ruziyev Erkin
Tolipova Jamila
Tursunov Samar
To'rayev Samad
Urazova Marina
Xankeldiyev Sher
Xodjayev Bekzod
Yuzikayev Farid

Muassis – Nizomiy nomidagi

Toshkent davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrda 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

© "Pedagogika" jurnali, 2020

TALABALARDA KASBIY-TIBBIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Rezume. Ushbu maqolada tibbiyot sohasi xodimlari kasbiy madaniyati xususiyatlari va mezonlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan.

Tayanch so'zlar: tibbiyot ta'limi, kasbiy faoliyat, nazariy asos.

Резюме. В данной статье с научно-педагогической точки зрения представлены особенности и основные критерии профессиональной культуры у сотрудников медицинской сферы.

Ключевые слова: медицинское образование, профессиональная деятельность, теоретическая основа.

Abstract. This article presents the problems of developing professional culture among medical workers, solutions and stages of their implementation.

Key words: medical education, professional activity, theoretical basis.



A. Nurmatov *

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq tibbiy kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash sifatini yaxshilash zarurati ilgari surildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan so'zlagan bayram tabrigida kasbiy-tibbiy madaniyat masalasiga alohida e'tibor qaratib, "Barchamiz bir haqiqatni esdan chiqarmasligimiz lozim: tibbiyot xodimlari – salomatligimiz posbonlaridir. Sizlar o'zingizning boy bilim va mahoratingiz, ilg'or malaka va ko'nikma, beg'araz xizmatingiz, kasbingizga mehr va sadoqatingiz bilan xalqimizning ishonchini yanada chuqurroq qozonasiz, deb ishonaman", - deya ta'kidladi. Haqiqatan, har qanday mustaqil davlat taraqqiyoti jamiyat a'zolarining, jumladan, tibbiyot xodimlarining kasbiy madaniyat darajasiga, dunyoqarashi, bilimi, tafakkuri, tibbiy muhitning sog'lomligi hamda ma'naviyatiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25-maydagi 228-sonli buyrug'i asosida Toshkent Davlat Tibbiyot Instituti davolash fakulteti qoshida "kasbiy ta'lim yo'nalishi" bo'yicha tibbiy pedagogika bo'limi tashkil etilgan bo'lib, keyinchalik bu bo'lim mustaqil fakultet sifatida ajralib chiqqan. Bu ta'lim amaliyoti talablaridan kelib chiqqan zaruratdir. Zero, tibbiyot sohasi xodimlarida kasbiy madaniyatni shakllantirish juda dolzarb masala hisoblanadi.

Tibbiyot sohasi xodimlarining kasbiy madaniyati o'z tarkibiga ko'ra turli xil xususiyatga ega. Ular, asosan, kasallik bilan kurashuvchi, salomatligi va nogironligi bo'lgan kasallar bilan muloqot qilish, kasallik tarixini sinchiklab o'rganish va umumiy

* **Nurmatov Azizbek**, TTA "Pedagogika va Psixologiya" kafedrasini o'qituvchisi, **E-mail:** malaziz.nurmatov.94@mail.ru

¹ **Мирзиёев Ш.** Ўзбекистон солиқни сақлаш соҳаси ходимларига. 9 ноябрь 2019 йил: <https://www.pv.uz/uz/news/category/Mast>

xulosani bemorga tibbiy madaniyatga rioya qilgan holda yetkazish, salomatlik holatini nazorat qilib turish, kundalik ahvoli nazoratini amalga oshirish, surunkali kasallik tizimi talablarining bajarilishini ta'minlash, o'ta og'ir bemorlar bilan alohida e'tibor ko'rsatgan holda atroflicha shug'ullanish kabilarni o'z ichiga oladi.

Umuman, "Madaniyat" tushunchasi insonning butun bir faoliyatini qamrab oladi. *Tibbiyot sohasi xodimlari bemorlarga xushmuomala bo'lib, ularning va o'zining obro'-izzatini saqlaydi. Ular bilan suhbat chog'ida faqatgina kasallikka taalluqli masalalar xususida so'z yuritadi. Bu har bir tibbiyot xodimining burchi va kasbiy madaniyatining asosidir.* Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: umuman olganda, tibbiyot sohasi xodimlarining kasbiy madaniyati fenomenining o'zi mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa, uning tarkibiy tuzilishi va shakllantirish imkoniyatlari qanday? "Kasb" va "faoliyat" tushunchalarini ko'rib chiqayotganda qisqacha tahlil va umume'tirof etgan tushunchalar bilan cheklanamiz, chunki ular muayyan muammolar ko'rib chiqilayotgandagina qiziqish uyg'otadi. "Kasb" tushunchasi lotinchada "professio", ya'ni maxsus nazariy bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni taqozo etuvchi hamda hayot kechirishning oddiy manbai hisoblanuvchi mehnat faoliyati, mashg'ulot turi degan ma'noni anglatadi, "faoliyat" esa inson sog'lom hayot kechirishining yo'llari; ijtimoiy voqelikni o'zgartirish yo'llari kabi ma'nolarni ifodalaydi. Madaniyatshunos olimlar M.Abdullayev va E.Umarovlar "Madaniyat insonning faoliyat jarayoni, uning natijasida yaratilgan ma'naviy qadriyatlari bo'lib, o'z navbatida, shaxsni rivojlantirish va takomillashtirishda muhim omil hisoblanadigan ijtimoiy hodisadir"² deb ta'kidlaydilar. Ushbu tushunchani aynan shu nuqtai nazardan talqin qilish, uning faoliyatli talqiniga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, mazkur talqiniga ko'ra, "madaniyatni tushunishda insonning faol ijtimoiy ijodkorlik faoliyati asos qilib olinadi, ya'ni ushbu faoliyat subyekti sifatida insonning o'z taraqqiyoti tushuniladi"³. Binobarin, inson faoliyatining barcha sohasida ikki asosiy madaniyat turi: moddiy va ma'naviy madaniyat tushunchasi mavjud. Biroq madaniyat tarixi bo'yicha izlanish olib borgan olimlar, sotsiologlar bunday bo'linishning nisbiyligiga ishonch hosil qilmoqdalar. Bunda E.A.Ballemin talqini diqqatga sazovor bo'lib, unga ko'ra, "madaniyat - insonning borliq va tafakkurning barcha sohalaridagi ijodiy faoliyati bo'lib, u o'tmishda u yoki bu madaniy qadriyatlarda moddiylashtirilgan, shuningdek, hozirgi kun va kelajakda avval orttirilgan tajribani o'rganish va kelgusida tabiat, jamiyat va insonning o'zini o'zgartirishga yo'naltirilgandir"⁴. Har qanday sohadagi "kasbiy madaniyat" degan tushuncha orqali mazkur kasbiy faoliyatning sifat ko'rsatkichi va taraqqiyoti tushunilib, u bilim, mahorat, ko'nikma va tajribani o'z ichiga oladi. Ya'ni, faoliyat

² **Abdullayev M., Umarov E.** Madaniyatshunoslik asoslari: O'quv qo'llanmasi. - T., 2006. - 17-b.

³ **Злобин Н.С.** Большая русская биографическая энциклопедия (электронное издание). - Версия 3.0. - М.: Бизнессофт, ИДДК, 2007.

⁴ <https://priceguard.ru/offer/ozon-32785756>

subyektining muayyan kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan sifatlarini qamrab oladi. Kasbiy madaniyat muammosi bilan bog'liq qarashlarni o'rganish va umumlashtirish kasbiy madaniyat abstrakt holda emas, balki kasbiy faoliyatning muayyan turi bilan bog'liq degan xulosaga kelishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, kasbiy madaniyatning muayyan turlari va shakllarini tadqiq etishni taqozo etadi. Xususan, kasbiy madaniyatning o'ziga xos shakli, shifokor, tibbiy pedagog, tibbiy xizmatchi, tibbiyot sohasida xizmat qilayotgan tez yordam, dastlabki yordam xodimi hamda tibbiy hamshira, sog'liqni saqlash tizimida xizmat qilayotgan xodimlarning kasbiy madaniyati to'g'risida so'z yuritish mumkin. Kasbiy madaniyat hodisasini tibbiyot sohasida faoliyat yuritayotgan xodim misolida ko'rib chiqish jarayonida ikki bir-biriga bog'liq va bir-biridan kelib chiquvchi mezonlarni asos qilib olish mumkin: *birinchidan*, tibbiyot xodimining kasbiy madaniyati ijtimoiy hayot voqeligi hamda kasbiy ahamiyatiga ko'ra; *ikkinchidan*, bir-biriga aloqador bo'lgan kishilar katta ijtimoiy guruhining submadaniyati sifatida.

Umuman olganda, kasbiy madaniyat subyekti kasbiy guruh hisoblanib, uning rivojlanishi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin; a) mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarining o'xshashligi; b) ular mehnatining bir-biriga mosligi; v) kasbiy faoliyat uchun muhim maxsus bilimlar mazmuni va hajmining mavjudligi; g) amaliyotda mazkur faoliyatga tegishli umumiy uslub va vositalarning qo'llanishi; d) guruh a'zolari mentalitetining umumiyliigi.

Shuningdek, tibbiyot sohasi bo'yicha raqobatbardosh kadrlar tayyor-lashning umummilliy tizimiga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Bunga maqsad va vazifalarning o'ziga xos xususiyatga egaligi, manfaatlar va mehnat sharoitlarining umumiyliigi, o'z qadriyatlarini va odatlari mavjudligi, xulq-atvor me'yorlari, standartlari va kasbiy til mezonlarini misol qilish mumkin. Kasbiy madaniyat subyekti sifatida tibbiyot sohasi xodimlarining kasbiy guruhlarini tadqiq etishda mazkur kasbiy guruhni boshqa ijtimoiy tuzilmalar, shuningdek, kasbiy guruh va faoliyatlardan ajratib turadigan o'ziga xos alomatlarini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Tibbiyot sohasi xodimlari tarbiyachi hamdirar, ya'ni kasallikning oldini olish, ijobiy hal etish, chaqiruv tez tibbiy yordam bilan ishlash, jamiyatga foyda keltiruvchi boshqa har qanday salomatlik yo'lida fidoiylilik bilan tun-u kun ish olib borish tibbiyot sohasi xodimlari kundalik ish faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Tibbiyot sohasi xodimlarining kasbiy an'analari, urf-odatlarini, xizmat xususiyatlari, me'yoriy hujjatlar va jamoatchilik fikri ular kasbiy madaniyatining asosiy manbalari bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bularning hammasi tibbiyot sohasi xodimlari mentaliteti, xulq-atvor qoidalari, qadriyatlar va an'analari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqa tarafdin, tibbiyot sohasi xodimlarining kasbiy madaniyati shaxs umumiy madaniyati unsurlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bunda quyidagi mezonlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi:

– umumiy va maxsus ma'lumot, shuningdek, tibbiyot sohadagi muayyan

ish tajribasi;

– kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarning muayyan tizimiga ega bo'lishi (tibbiyot sohasi xodimlari uchun umumiy bo'lgan, muayyan kasbiy faoliyat uchun zaruriy bo'lgan o'ziga xos sifatlari – birinchi yordam berish, tezkorlik, kuzatuvchanlik, tartiblilik, nazorat qilish, yetkazib berish, bemorni tez tibbiy yordam orqali operatsiyaga tayyorlash, operatsiyadan muvaffaqiyatli olib chiqish va h.k.).

Bular, o'z navbatida, tibbiyot xodimiga tibbiy xizmat majburiyatlarini samarali amalga oshirish, tibbiyot sohasi tizimida to'plangan kasbiy xorijiy tajribaga ega bo'lish, ulami xizmat faoliyatida ijobiy qo'llash imkonini beradi.

Kasbiy faoliyatning boshqa turlarida unga o'z bo'lsa-da o'xshash faoliyat turini uchratish qiyin. Afsuski, ayrim tibbiyot sohasi xodimlarining kasbiy xulq-atvoriga deviant submadaniyat, ya'ni umum qabul qilingan madaniyatga zid madaniyat "namoyandalari" bilan o'zaro muloqot o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi (adabiyotlarda aksil madaniyat yoki kontrmadaniyat kabi tushunchalar ham uchrab turadi).

Tibbiyot bilan pedagogikaning o'zaro integratsiyasi bugungi pandemiya sharoitida yaqqol ko'zga tashlandiki, tibbiy pedagoglarni tayyorlash davr talabi hisoblanmoqda.

Tibbiyot sohasi tizimi kasbiy madaniyati kasbiy xizmat faoliyatida xodimning umumiy va nazariy tayyorgarlikka asoslangan yuqori kasbiy tayyorgarligi, kasbiy mahorat va tajribasi mahsuli bo'lib, tibbiyot xodimining shaxs umumiy madaniyati negizida o'z ustida ishlash va malakasini oshirish ko'nikmasi, shuningdek, kundalik kasbiy faoliyat jarayonida mavjud bo'lgan kasbiy sifatlari zaxirasini qo'llay olish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2019-2020 yillar uchun tasdiqlangan "Kasbiy pedagogika" va "Kasbiy ta'lim metodikasi" o'quv dasturlarida aynan tibbiyot sohasi xodimlarining kasbiy madaniyatiga xos tibbiy pedagogik xususiyatlar haqida tushuncha va tavsiyalar berilgan bo'lib, endilikda uni yanada kengaytirish uchun zarur ilmiy-metodik baza yaratilmoqda.

Demak, tibbiyot sohasi xodimlarining kasbiy madaniyati - har bir xodimning kasbiy mahorati va tajribasining mahsuli bo'lib, o'z ustida ishlash va malakasini oshirish ko'nikmasi hamda kundalik kasbiy faoliyat jarayonida mavjud bo'lgan kasbiy sifatlari zaxirasini doimiy ravishda takomillashtirib borishdan iborat.

Tibbiyot sohasining funksional faoliyati ko'p qirrali bo'lganligi sababli turli malakaga ega mutaxassislariga ehtiyoj seziladi. Bu ham tibbiyot, ham psixologik, ham boshqaruv, ham pedagogik, ham texnik-muhandislik va iqtisod sohalariga tegishli bo'lishi mumkin.

Shu bois tibbiyot sohasi doirasidagi dastlabki birinchi yordam, tezkor chaqiruv, profilaktik yordam, pediatr, jarroh, akusher-ginekolog, onkolog, kardiolog, urolog, oftalmolog, terapevt va boshqa tibbiyot sohasi xodimlari kasbiy madaniyatining o'ziga xosligi uning kasbiy faoliyati mazmuni bilan belgilanadi.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,
PEDAGOGIK INNOFATIKA

Xolmuxamedov M.M.
Professional ta'lim tizimiga
kompetensiyaviy yondashuvni joriy
etish masalalari.....3

Nurmatov A.
Talabalarda kasbiy-tibbiy madaniyatni
rivojlantirish masalalari.....8

Saribayeva U.S.
Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida
tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik
xususiyatlari.....12

Taktashva D.P.
Педагогические условия применения
метода проектов при
формировании коммуникативных
умений студентов.....16

Абдуллаева Д.У.
Вебинар как форма электронного
обучения в вузе.....22

Исраилова М.Н.
Профессионально-личностное
здоровье педагогов как фактор
успешности и образовательной
организации.....27

Tojiboyeva S.X.
Abu Ali ibn Sino ilmiy merosi
va uning pedagogik jihatlari.....31

GUMANITAR VA IJTIMOY FANLAR
TA'LIMI

Xoliqov A.Q.
Axloqiy-estetik bilimlar vositasida
ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi
yoshlar ijtimoiy moslashuvini
amalga oshirish.....36

Abduvalitov N.B.
Adabiyot darslarida jahon
adabiyoti namunalarini janr
xususiyatlariga ko'ra
o'rganish.....40

Jalilova N.T., Turayeva D.
Ingliz tili darslarida
qollaniladigan ta'limning ilg'or
texnologiyalari.....44

MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY
FANLAR TA'LIMI

Sattarova B.D.
Axborot texnologiyalari muhitida
astronomiya o'qituvchilarining kreativ
kompetentligini rivojlantirish.....48

Ongarov M.B.
O'quv-dala amaliyotini o'tkazishda
o'qituvchi va talaba faoliyatini
uyg'unlashtirish.....54

Alimkulov N.R., Abdullayeva D.N.
Geografiyadan elektron darslik
yaratishga qo'yiladigan talablar.....58

Abdurizayeva S.R.
Biologiyani o'qitish jarayonida
o'quvchilarning ijodiy faoliyatini
tashkil etish.....63

Qo'qonboyeva Sh.R.
Fizika amaliy mashg'ulotlarida
interfaol texnologiyalardan
foydalanishning ayrim jihatlari.....66

MAKTABGACHA TA'LIM

Salimova D.F.
Maktabgacha yoshdagi bolalarning
axloqiy rivojlanishida syujetli-rolli
o'yinlarning ahamiyati.....71

Xurvaliyeva T.L.
Maktabgacha ta'lim jarayonida
integratsion klasterli yondashuvni
tashkil etish.....75

Tayjanova M.M.
Noo'rin munosabatlar bolada
hissiy-emotsional zo'riqishni
keltirib chiqaruvchi asosiy omil
sifatida.....79

SAN'AT VA JISMONIY
MADANIYAT TA'LIMI

Turatov J.G'.
«Ustoz-shogird» tizimi asosida
sozandalar tayyorlashning
oziga xos xususiyatlari.....83

Бабичева И.В.
Современные оздоровительные
системы в физическом
воспитании студентов.....87

Моргунова И.И.
Методические особенности
проведения занятий
по хореографии.....94